

ERKIN VOHIDOV IJODIDA IYHOM SAN'ATINING O'ZIGA XOSLIGI

Ravshan Abduvaliyev, M. Xubbimqulova

**Samarqand viloyati Ishtixon tumani XTBga qarashli 2-umumiy o'rta ta'lim
maktabi o'qituvchilari**

- *Erkin aka, biroz o'ng'aysiz bo'lsa-da, o'zingizning ijodingizga tegishli mulohazamni ham aytsam... Garchi keyingi kitoblaringizda siz mutlaq boshqa shoir sifatida ko'ringan bo'lsangiz ham, ruhan baribir klassik adabiyotimiz an'analariga sodiq qolaverdingiz. She'riy intizom, ohang, musiqaviylik, fikriy teranlik, donishmandona nazar, boringki, falsafa - barchasi sharqona. Shuning uchun men Sizni ijod tomirlarida Sharq she'riyatining qoni oqib turgan yirik hamda (afsuski) so'nggi vakil deb bilaman...*

- *Nimaga shama qilayotganingizni tushundim. Avvalo shuni aytishim kerakki, agar men Sharq she'riyati ruhini o'ziga singdirgan so'nggi shoir bo'lsam dunyoda eng baxtsiz shoir bo'lar edim. Shukrki, bunday emas...*

(Yozuvchi Nurillo OTAXONOV bilan suhbatdan)[1:228-229-b]

O'zbek she'riyati tarixan buyuk ijodkorlarga limmo-lim to'la dengizga qiyos. Mumtoz va zamonaviy she'riyatimizning yetuk davomchisi - Erkin Vohidov o'sha dengizni mavjlantirgan ulkan tilsimli ijodkor edi.

Umuman, shoir ijodining originalligi va yutuqlari oddiy she'rxon uchun ham sir emas. Shoir ijodining xilma-xilligi, ohorlilik va she'riy san'atlarning rang-barangligini bilamiz. Albatta, Erkin Vohidov ijodistonini bir ummon desak, bu ummonga quyiluvchi daryolar va irmoqlarni turli-tuman janr va badiiy-she'riy

san'atlar hosil qiladi. Va biz shu irmoqlardan biri haqida ya'ni shoir she'rlaridagi iyhom san'ati haqida va bu san'atning shoir she'riyatida o'ziga xosligi to'g'risida qarashlarimizni bayon qilamiz.

Iyhom - (arabcha, shubhaga solish, chalg'itish) she'rda ikki ma'noni ifodalovchi so'zni qo'llash san'ati. Iyhomning tajnisdan farqi tajnisdan bir xil shakldagi ikki yo undan ortiq so'z bir necha bor takrorlanib alohida-alohida ma'noga ega bo'ladi. Iyhomda esa ikki yoki undan ortiq ma'no bir so'zda ifoda etiladi.

Sharq poetikasida ushbu san'atning o'rni beqiyos. Iyhom o'ta nozik san'at bo'lgani uchun Alisher Navoiy bu san'atni " xossa ma'no" (eng nozik ma'nolar) ni ifodalaydigan san'at ekanini ta'kidlaydi:

Agar xossa ma'no gar iyhom erur

Aning kunda yuz bayti havlom erur... [2]

O'zbek adabiyotining boshidan ne-ne qora kunlar o'tgani hech kimga sir emas, albatta. Adabiyotga qo'yilgan senzura, ta'qiqalar bo'lishiga qaramasdan har qanday sharoitda ham o'zbek she'riyati, adabiyoti o'sishda to'xtamadi. Garchi Sobiq Ittifoq tugatilgani va uning tarkibidagi xalq va millatlarga o'z mustaqilligini qo'lga kiritganlari haqidagi xabarlar keng tarqalgan bo'lsa ham bu haqda baralla aytishga jazm etadiganlar sanoqli edi.

Shoirning "Vatan istagi" she'rining oxirgi bandiga e'tibor berilsa, biz yuqorida so'z yuritgan she'riy san'at - iyhomdan muallif juda o'rinli foydalanganiga guvoh bo'lamiz:

Qutlug' istiqlol kunida Ey Vatan bag'ringda shod

Erkin o'g'loning bo'lib, Yurmoqni istaydir ko'ngil [3: 332-b]

Shoir ushbu she'rida (nafaqat ushbu she'rida balki ko'plab she'rlarida) o'z ismidan mohirona foydalanib, iyhom san'atini vujudga keltiradi: bir tomondan, Erkin so'zi ism ma'nosida qo'llanilib, she'rni "imzolayotgan", yanada soddaroq aytganda, " Ey Vatan istiqlol kunida bag'ringda Erkin Vohidov bo'lib yurmoqni istaydi ko'ngil" deb tahlil qiladigan bo'lsak, ikkinchi tomondan, "Ey Vatan istiqlol kunida bag'ringda erkin, ozod, mustaqil yurmoqni istaydi ko'ngil" deb tahlil qilishimiz ham mumkin.

Shoirning 1991-yilda e'lon qilingan "She'riyat" nomli she'rida ham Vatanimiz o'z mustaqilligiga erishganiga qaramay, ozodlikka tahdidlar ham shunga yarasha bo'lgan "g'avgoli onlar"ni tez orada o'tib ketishi va "osuda davronlar" kelishini ishonch bilan aytadi:

O'tar g'avg'oli bu onlar, Kellar osuda davronlar,
Zakiy Erkin g'azalxonlar Berar bir kun baho menga [4: 325-326-b]

Ushbu she'rni to'liq o'qir ekansiz "Dilim charchab xatolardan, El ichra mojarolardan..." , "himoyatsiz zamon" singari jummalarga duch kelasiz va o'sha davrga o'qirmonni bir oz muddatga "qaytarish" ushbu maqolaning ta'mini yanada totli bo'lishiga umid bog'ladik. Ya'ni shunday tahlikali davrda ham shoir iyhom san'atidan unumli foydalangan holda kelajakda zakiy, erkin, ozod g'azalxonlar bo'lishi va ijodiga haqqoniy baho berishi haqida bashorat qiladi. Natijada, o'quvchining estetik zavqini uyg'otishga xizmat qiladigan, she'rsiragan ko'ngillarni qitiqlaydigan, yuksak badiiy darajadagi she'riy misralar namoyon bo'ladi.

Erkin Vohidovning o'z ismi qo'llanilgan har bir she'rida iyhom san'ati bor degan fikrdan yiroqmiz, albatta.

Masalan, deyarli hammaga tanish va yod bo'lgan "Inson qasidasi"ning tugash bandidagi:

Ey, sen Erkin, sen bukun

Yozding dilingdan bir tugun,

Sen kimu ne dahri dun,

Biyron o'zing, nodon o'zing [5: 295-296-b]

Ushbu misralarda biz yuqorida ta'kidlagan hol kuzatilmaydi.

Erkin Vohidovning yana ko'plab she'rlarida o'z ismi orqali iyhom san'atini hosil qilish hollari mavjudligini avvalboshda ta'kidlagan edik. Ijodkorning "O'zbekim" qasidasi (1968), "Otdoshlarim" (1977) singari ko'plab she'rlari [6] shular jumlasidan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1. Vohidov Erkin. Iztirob.-T.: "O'zbekiston" - 1992**
- 2. A.Navoiy. Mezon ul-Avzon.- T.: "Fan" - 1999**
- 3. Vohidov Erkin. Iztirob.-T.: "O'zbekiston" - 1992 (keyingi o'rinlarda o'sha asar deyiladi.**
- 4. O'sha asar.**
- 5. O'sha asar**
- 6. Erkin Vohidov - Saylanma 2-jild - "She'r dunyosi"- T.: "Sharq" - 2001**